ILMIY-IJODIY FAOLIYATDA MUVAFFAQIYATGA ERISHISHDA IJTIMOIY-MADANIY MUHITNING TA'SIRI

Risqulova Z.I
GDPI magistranti
Email:yusupovaziyoda2001@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada ilmiy-ijodiy faoliyatda muvaffaqiyatga erishishda ijtimoiy-madaniy muhitning ta'siri tahlil qilinadi. Ilmiy-ijodiy faoliyat nafaqat individning shaxsiy rivojlanishiga, balki jamiyatning madaniy va ijtimoiy taraqqiyotiga ham bevosita ta'sir ko'rsatadi. Maqolada ijtimoiy-madaniy muhitning ilmiy-ijodiy faoliyatga ta'siri, uning komponentlari va bu jarayondagi o'zaro aloqalar o'rganiladi.

Kalit so'zlar: Ilmiy-ijodiy faoliyat, ijtimoiy-madaniy muhit, muvaffaqiyat, ta'sir, komponentlar, o'zaro aloqalar.

Abstract: This article analyzes the impact of the socio-cultural environment on achieving success in scientific and creative activities. Scientific and creative work not only contributes to the personal development of an individual but also directly influences the cultural and social development of society. The article examines the impact of the socio-cultural environment on scientific and creative activities, its components, and the interactions within this process.

Keywords: Scientific and creative activity, socio-cultural environment, success, impact, components, interactions.

Аннотация: В данной статье анализируется влияние социально-культурной среды на достижение успеха в научно-творческой деятельности. Научно-творческая работа не только способствует личностному развитию индивида, но и оказывает прямое влияние на культурное и социальное развитие общества. В статье рассматривается влияние социально-культурной среды на научно-творческую деятельность, её компоненты и взаимодействия в этом процессе.

Ключевые слова: Научно-творческая деятельность, социально-культурная среда, успех, влияние, компоненты, взаимодействия.

Ilmiy-ijodiy faoliyat — bu individning bilim va qobiliyatlarini rivojlantirish, yangi g'oyalar yaratish hamda jamiyatga foydali natijalar taqdim etish jarayonidir. [1] Biroq, bu faoliyatning muvaffaqiyati ko'plab omillarga bog'liq bo'lib, ularning eng

muhimlaridan biri ijtimoiy-madaniy muhitdir. Ijtimoiy-madaniy muhit, o‘z navbatida, individning fikrlash tarzini, qadriyatlarini va ijodiy qobiliyatlarini shakllantirishda muhim rol o‘ynaydi.[2]

Har bir jamiyatning o‘ziga xos madaniy qadriyatlari va an’analari mavjud bo‘lib, ular individning dunyoqarashini va ijodiy faoliyatini shakllantiradi. Masalan, Sharq xalqlarining boy adabiy merosi va ilm-fan sohasidagi an’analari yosh avlodning ilmiy izlanishlarga bo‘lgan qiziqishini oshiradi.[3] Bu esa o‘z navbatida ilmiy-ijodiy faoliyatning rivojlanishiga turtki beradi.

Ijtimoiy muhitning qo‘llab-quvvatlashi, ya’ni oilaning, jamiyatning va davlatning ilmga bo‘lgan e’tibori individning motivatsiyasini oshiradi.[4] O‘zbekiston Respublikasida olib borilayotgan ta’lim islohotlari, yosh olimlarga berilayotgan grantlar va stipendiyalar ilmiy faoliyatga bo‘lgan qiziqishni oshirishga xizmat qilmoqda.[5]

Zamonaviy ta’lim tizimi va uning resurslari (kutubxonalar, ilmiy markazlar, laboratoriyalar) ilmiy-ijodiy faoliyat uchun zarur sharoitlarni yaratadi. Ijtimoiy-madaniy muhitda ta’limga berilayotgan ahamiyat, o‘qituvchilarning malakasi va o‘quv materiallarining sifati ilmiy faoliyatning muvaffaqiyatiga bevosita ta’sir qiladi.[6]

Ijtimoiy-madaniy faoliyat jamiyat hayotining muhim elementi bo‘lib, madaniy qadriyatlarni saqlash va rivojlantirish, ijtimoiy guruhlar va qatlamlar o‘rtasidagi hamkorlikni mustahkamlash, jamiyatda barqarorlikni ta’minlash kabi vazifalarni bajaradi.[7] Shuningdek, ushbu faoliyat sohasi ma’rifiy, tarbiyaviy, kommunikativ va estetik funksiyalarga ega bo‘lib, ularning integratsiyasi orqali jamiyatning madaniy rivojlanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

Rossiyalik psixolog va ta’lim olimi Lev Vygotsky ilmiy-ijodiy faoliyatda ijtimoiy va madaniy muhitning ta’sirini ta’kidlagan. Uning “Ijtimoiy-madaniy nazariya”si (Social Cultural Theory) bo‘yicha, odamlarning kognitiv rivojlanishi va ijodiy faoliyati to‘g‘ridan-to‘g‘ri jamiyat va madaniyat bilan bog‘liq.[7] Vygotsky ta’kidlashicha, bilimlar va ijodiy qobiliyatlar jamiyatdan o‘rganiladi, shuning uchun ijtimoiy muhitning ta’siri o‘ta muhimdir.

Amerikalik psixolog Howard Gardner ko‘p intellektlar nazariyasini ishlab chiqqan va bu nazariyani ta’lim tizimida tatbiq etgan. Gardnerning fikriga ko‘ra, ilmiy-ijodiy faoliyat ko‘plab omillarga bog‘liq bo‘lib, ijtimoiy-madaniy muhit bu jarayonda katta rol o‘ynaydi.[8] U shuningdek, madaniy qadriyatlar va jamiyatning ehtiyojlari individning intellektual va ijodiy qobiliyatlarini shakllantirishda muhim rol o‘ynashini ta’kidlaydi.

Mihaly Csikszentmihalyi, ilmiy-ijodiy faoliyatni o‘rganishda “Flow” (yoki oqim holati) kontseptsiyasini ishlab chiqqan. U ilmiy va ijodiy ishlarda muvaffaqiyatga erishishda ijtimoiy-madaniy muhitning ahamiyatini ko‘rsatadi. “Flow” holati ijodiy faoliyatda yuqori darajadagi diqqat va hissiy farovonlikka erishish imkonini yaratadi.[9] Shuningdek, madaniy va ijtimoiy sharoitlar bu holatni yaratish uchun kerakli shart-sharoitlarni taqdim etadi.

Teresa Amabile, yaratijonlik va motivatsiya bo‘yicha mashhur olim, ilmiy-ijodiy faoliyatda muvaffaqiyatga erishish uchun ijtimoiy muhitning juda muhimligini ta’kidlaydi. U o‘zining “Yaratijonlikning uchta omili” modelida (motivatsiya,

resurslar va tashkiliy muhit) ijtimoiy-madaniy muhitning ijodiy faoliyatdagi o‘rni haqida gapiradi.[10]

Ilmiy-ijodiy faoliyatning muvaffaqiyati ko‘plab omillarga bog‘liq bo‘lib, ijtimoiy-madaniy muhit ulardan eng muhimidir. Madaniy qadriyatlar, ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash, ta’lim tizimi va resurslar ilmiy faoliyatning rivojlanishiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Shuning uchun, ilmiy-ijodiy faoliyatni rag‘batlantirishda ijtimoiy-madaniy muhitni yaxshilashga alohida e’tibor qaratish zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Saidov I. M. (2024). Ijtimoiy-madaniy kompetentlikning ilmiy tavsifi. Farg‘ona davlat universiteti ilmiy jurnali, 1(2), 202-209.
2. Xasanova G. (2024). Ijtimoiy-madaniy faoliyat integrativ ko‘p funktsiyali faoliyat sohasi sifatida. ResearchGate, 46-49.
3. Samatova, D. Y., & qizi Yusupova, Z. I. (2025). TA’LIMDA INNOVATSION YONDASHUVLARNING IJODIY QOBILIYATLARGA TA’SIRI. *Innovative Development in Educational Activities*, *4*(1), 186-193.